

JONIM MANI

“Insonda shunday tuyg`ular bo`ladiki,
uni boshqalarga tushuntirish u yoqda tursin
o`zi ham tushunmaydi”
(Ra`no, Ikki eshik orasi)

***G`ayrat Isroilov,
talaba (JDPI)***

Bugun repetitorlik mashg`ulotlari, odatdagidek 15-00 da boshlandi. Doira qilib tartiblangan partalarning deraza tomondagi eng birinchisida men o`tiribman. Partadoshim Temur (mendan uch yosh kichik). Sariqdan kelgan, uzun bo`yli, ozg`in bu yigit juda hazilga o`ch. 1 gapirib 9 kuladi, 10-siga kuchi yetmay, tiqilib qoladi. Har safar qizlar gapirsa, - yo`g`e, rostanmi? – deb yana kulaveradi.

To`garakka keladigan qizlar orasida eng chiroylisi Muqaddas. Kipriklari uzun, burni va iyagi ingichga bo`rtib chiqqan, ko`zlari ti-im qora, bir qarashda o`ziga tortuvchi bu qiz juda kam gap. Dugonalari uni Aliya deb chaqirishadi. Bilishimcha, mahallasida onasi lo`li bo`lgan bir ayol bor. Qoramag`izdan kelgan Muqaddasni ko`pchilik shunga o`xshatadi. Ammo o`zi bundan hech hafa bo`lmaydi – “nima lo`lilar odammasmi?” deb qo`yaqoladi.

Shu kuni nimadir bo`lib, o`qituvchimiz kechroq keladigan bo`ldi. Bunday paytda bollarni savol – javob qilish vakolati, siyrak soch Doniyor akaga o`tadi. Men uni mister Doni deb atayman, “Daydi qizning daftari”ni o`ziyam o`qigan shekilli, ba`zan “ - qo`ysangchi – yey,” deb qo`yadi. U mendan ikki yosh katta. Ikki yil topshirib “kirolmagan”, ammo tarixni yahshi biladi.

Xullas, u kishi “avval katta, keyin latta” tamoyiliga asoslanib, savol – javobni avvalo, kaminai “daho”dan boshlab qo`ya qoldi. Yigirmata savoldan berilgan ketma – ket 14 tasiga javob berdim. Yahshi natija, kachagiga qaraganda, albatta. Odatga ko`ra, savol – javobdan o`tgan ketaveradi. Ammo ketgim kelmadi. “O, Muqaddas, sendan uzoqlashishni hohlamayman”. Orqa partaga o`tirib, keyingilarni savol – javobini kuzata boshladim.

Shu payt Shaxloning gapidan esankirab qoldim.

- “Ha-a, Muqaddas, g`ayratiz kemayaptimi? Kitobni teskari o`qiyapsiz”. Shaxlo bilan Sevaraning zambarakday kulgusi butun xonani tutib ketdi.
- “Sizni nima ishez bor, tovba-a, o`zimcha kitobni teskari o`qishga harakat qilayotuvdim”, – dedi qizarib.

Qoramag`izlarning qizargani unchalik bilinmasa ham, ammo Muqaddasnikini yaqqol sezdim.

“O, Muqaddas, jonim, nahotki seni ham menda ko`ngling bor, nahotki meni sevsang”, negadir quloqlarim qizib ketdi.

Aslida, sevgi qo`l ushlashe-e-eb ko`cha-ko`yda yirish yoki, kechqurun 23 dan ertalabki 4 gacha telefonda gaplashish emas. Sevgi .... Agar sevib qolsang uning ko`zlariga qaray olmaysan, hatto, tomoqlaring qahrab ketadi, yuragingni urushini eshitib ham sanashing mumkin. Mana shunday bo`ladi sevgi.

#

#

#

Shu kecha uxlay olmadim. O`zimcha, bir nimalar haqida o`ylab chiqdim. Va nihoyat o`ta jiddiy, “davlat ahamiyatiga molik”, “favqulotda” qaror qabul qildim: xat yozaman

#

#

#

Yana to`garak boshlandi. Bu safar joyimni Madina ismli qizga qizga bo`shatib berib, Temur bilan orqa partaga o`tdik.

- Temur senga bitta topshiriq bor.
- Qanaqa topshiriq? – dedi, tishlarini ko`rsatib.
- Xat bor Muqaddasga

Temur uning sinfdoshi, ham qo`shnisi. Kitob bahona har kuni shularnikida. Shu sababli Temur men uchun eng qulay “variant”.

- qisqasi, borasan, berasan, tamom. – dedim ichimda qaltirab, ammo ovozim tiniq edi.

- Ha-a, to`g`ri aytasiz, hammasi oson, boraman, beraman, - dedi kinoyali ohangda – uni katta akasi uyda, kichkina akasi, u ham uyda, xullas ikkalasi ham uyda, agar meni singlisiga xat opkeganimni bilib qolishsa o`sha zahoti “shamimni yoqishadi”.
- Iye, Temur. Ha endi, “men singlingizga hat opkeganimni sizlarga aytmayman” demasang, bilishmasa kerak. Katta narsa bo`lmasa, kistangga olib kirib, se-kin o`ziga berasan. Axir bir paytlar “sizdek akam uchun o`lishga ham tayyorman” deganding-ku, yoki yolg`onmi?
- To`g`rilikka-to`g`rikuya, lekin tez orada o`lishimni bilmagandim-da. Xullas ko`ndirdim. Xat o`z egasiga borib yetdi.

#

#

#

Ana endi vaqt o`tishini bir tasavvur qiling. Soatning to`xtab qolmaganligiga ishonch hosil qilish uchun yaqinroq borib eshitib ko`raman, chiqillayapti, demak ishlayapti. Unda nega muncha imillaydi. Soat degani tez-tez harakat qilsada.

Shu kecha tunni “qo`y sanash” bilan o`tkazdim.

Shu kuni negadir to`garakka borgim kelmadi. Boshimda ming xil hayollar: xatni o`qib yirtib tashlagan bo`lsa-ya, yoki qayta-qayta o`qib yostig`ining tagiga qo`yib qo`ydimikin?! Ishqilib, tinchlik bo`lsinda.

Bu kunisiga darsga kelsam, o`qituvchimizdan boshqa hech kim yo`q.

- kel G`ayrat, buncha erta, - dedi o`qituvchimiz.
- Bugun men uchun boshqacha kun, - dedim o`zimcha.
- Qanaqa kun?
- Bugun, men, dars tayyorlab keldim, faqat hammadan keyin javob beraman!

Darsga sekin hamma kela boshladi. Qizlar orasida Muqaddas ko`rindi. Bu safar u orqaroq partaga o`tirdi. So`ng Temur kirib keldi. To`g`ri mening yonimga kelib o`tirdi. Sinf g`ala-g`ovur.

- nima bo`ldi, berdingmi? – dedim hayajonlanib.
- Avval salom, bad az kalom. Yahshiman, yahshi yuribman, rahmat. Xatingizga kelsak, zo`r yangiligim bor. Mana.

Uni qo`lidagi qog`ozni ko`rib jinni bo`lib qolay dedim.

- nima? menga xat yozdimi? Qani berchi! – dedim tezda. Olib o`qisam, o`sha men bergan xat.
- Iye, bermadingmi?
- Berdim. Yonimda o`qib o`zimga qaytarib berdi.
- Nima dedi?
- Ertaga keling dedi.
- Nimaga?
- Ayam mendan bir lagan osh bervorgandi, “idishni ertaga olib ketas” dedi.
- Qanada idish?
- Lagan, oshni lagani,/
- Qanaqa osh. Hey bola, xatni aytayapman. O`qib bo`lgach nima dedi?
- He-ech ni-ma! Hech nima demadi. Ha endi birinchisidan “bir balo” deyishiyam noto`g`ri-da.
- To`g`ri aytasan. Yana xat yossammikin. Nima deysan?
- Menimcha foydasi yo`q. Undan ko`ra telefonda ochiqcha gaplashing.
- Xatimga javob bermagan, telefonga javob beradimi? Geradot!
- Iye, qadimdan qolgan bir gap bor “chiqmagan jondan umid”!!!

#

#

#

Kech soat 21 lar, uydagilar hammasi serial ko`rayapti. Seki-in dahlizga o`tdim. Qo`limda telefon hali dars tayyorlashim kerak. Nima qilsamikin? Qo`ng`iroq qilsam ko`tarmasa-chi? Ko`tarmasa yaxshiku-ya, ko`tarsachi? Keyin nima deyman, “salom, qalesan? Seni bir yo`qlomoqchiydim?” deymanmi? Yo`q!

dadil gapirishim kerak. Men yigit kishiman! Men kurashmasam, qiz bola boshi bilan u kurashdimi? Uff, nega endi aynan o`g`il bola kurashishi kerak-a? Biz erkaklar o`zlarimizga qulay qilib qurgan bu jamiyatdagi birgina shu “vakolat”ni ayollarga bersak, osmon uzulib yerga tusharmidi? Mayli, nima bo`lsa bo`ldi, yo hayot-yo momot.

Nihoyat, telefon raqamini terdim: tu-u-ut, tu-u-ut.....oyog`im qaltirayapdi. Xuddi hozirgina uzoq safardan kelganday .... tu-u-ut, tu-u-ut.... qulog`imga faqat telefon signali-yu, soat chiqillashi eshitilardi.

“Siz qo`ng`iroq qilgan abonent hozir javob berolmaydi, iltimos keyinroq qo`ng`iroq qiling”. Keyinroq? Nega? U atayin ko`tarmadimikin? yoki oshxonadamikin? Menimcha u ham serial ko`rayapdi bu orada telefon raqamni avtomatik qayta terdi: tu-u-ut tu-u-ut..... telefon signali qulog`imga xuddi musiqaday eshitildi. Beixtiyor joyimda turib, bu sehrli ovozni eshitar edim.... qanday yoqimsiz va hunuk ovoz.....

Bir payt shunday hunuk hilqatniajoyib bir ovoz butunlay ag`darib tashladi.

- Allo!
- “.....”, men nima deyishimni bilmay qoldim, butunlay boshqa olamga tushib qolganday edim. Ko`zlarimni katta-katta bo`lib kelganimi deraza oynasidagi aksimga qarab bildim.
- Muqaddas, salom, qalesan, yaxshsimisan, yaxshi yuribsanmi, o`qishlaring yaxshimi, men senga bir nima aytmoqchiydim .... Uydagilaring yaxshimi, ayang, dadang o`zing yaxshimisan, hammasi joyidami?

Men nima deyotganimni o`zim bilmas edim. Bunday paytlarda nima deyish mumkin, axir?

- Ha, yaxshiman, - dedi mayin ovoz bilan, menimcha kulib ham qo`ydi.

Nihoyat o`zimni bosishga harakat qildim.

- Senga telefon qildim biroz ko`tarmading, tinchlikmi?

Birdaniga uni so`roqqa tutganimdan o`zim hijolat bo`ldim. Bir oyog`imni huddi kaptok tepayotganday u yoqdan, bu yoqqa siltay boshladim.

- Ha-a, telefonmi? Gudok tovushlarini sanayotuvdim?

G`alati odatlari bor, bir kitobni teskari o`qiydi, bir gudokni sanaydi.

- Nega?

- Shunchaki, o`zim. 13 raqamini yaxshi ko`raman, agar ishlarimni shu raqam bilan boshlasam ko`pincha omadim chopadi.

- Ha-a! – ich-ichimdan suyunib kettim, yaxshiyam qayta qo`ng`iroq qilibman, bo`lmasa hammasi boshqacha bo`larmidi?

- 13 raqamini ko`pchilik omadsiz raqam deyishadi. Sen bung anima deysan?

- Yo`q, unday emas. Ko`pchilik omadi kelmaganlar o`zini ovutish uchun butun aybni raqamga to`nkashadi.

- Menimcha ham shunday. Axir raqamda nima gunoh, to`g`rimi?

- To`g`ri? Voy, meni chaqirishayapti. Hayr, yaxshi dam oling. Tut-tut-tut.....

O`sha kuni mendan baxtliroq, mendan hursandroq odam bo`lmagan bo`lsa kerak. Oynaning oldiga kelib, taroq bilan sochimni taray boshladim, u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa. Sochlarim ham mendan hafa bo`lib ketgan bo`lsa kerak. So`ng yugurib oshxonaga kirdim. Muzday suvni ichib to`g`ri xonamga o`tdim. U menga “yaxshi dam oling” dedi. Men bu “topshiriq”ni, albatta, ortig`i bilan bajarishim kerak!

#

#

#

Oradan ikki oy o`tdi. Bu orada ko`p voqealar bo`lib o`tdi. O`rtamizdagi munosabatlar ayrim “do`stlarimiz” tomonidan elu-xalqqa ovoza bo`lib ketti. Hatto bir safar, Muqaddas o`qishdan qaytayotganda, yo`l chetida to`p-to`p bo`lib turgan

bollar “G`ay-rat, G`ay-rat” deb baqirishgan ekan. Bu gaplar menga qanday ta`sir qilgani o`zimga ayon, unga-ku, tasavvur qilavering.

Ha demay avgust keladi. 1-avgust – hayot-momotim hal bo`ladigan kun. O`rtadagi sovuqchiliklar o`qishimga katta ta`sir ko`rsatdi. O`qishga kirsamu, ketsam. Uzoqqa ketsam, hammasini tashla ketsam....

31 – iyun kuni qandaydir bir kuch bilan unga qo`ng`iroq qildim. Ko`tarmadi. Huddi ertaga Azroil kelib, nimadir hal bo`ldiganday, unga vasiyatnomaga o`xshash bir SMS yozdim.

Bu kunisiga imtihon bo`ldi..... 15 – avgust – men talabaman.

#

#

#

Sentabr oyi. Bir hafta o`qidikmi, yo`qmi paxtaga jo`nadik. Agar hayotimni sihdagi kabobga qiyos qilsam, 62 kunlik paxta davrini shu kabobning kuyib ketgan, qora-qora joylariga o`zshaysi. Haqiqatdan ham odam o`lmasa yashayverar ekan.

Xullas, paxta tugab o`qish boshlandi. Tez orada yangi yil kirib keladi. Bayram ko`nglimga sig`maydi. “studentlik shu bo`lsa kerak emas” deyman ichimda. Shu zayl biroz vaqt o`tib yangi yil kirib keldi. 31 – dekabr. Har doimgiday uydaman. Sinfdoshlarim chaqirishuvdi, bahona qildim. Kech soat 23-40. Bir mahal telefonimga bir xabar keldi. Notanish raqamdan. Ochib o`qidimu yuragim to`xtab qolay dedi: “men, Muqaddasman, qo`ng`iroq qiling iltimos.”